



MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK TARIXI

Izzatilla Lutfullaev

BM – 105

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilgan xalqaro hamkorlik jarayonlari yoritiladi; Turkiya, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi davlatlar va tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishlari, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar hamda bu hamkorlikning natijalari tahlil qilinadi. Maqola ochiq manbalar asosida yozilgan bo'lib, oddiy tilda tushunarli tarzda bayon etilgan.

Kalit so'zlar : talim sohasidagi hamkorlik tarixi , integratsiya , talim tizimi

Kirish

1991 – yil 1 – sentabrdan boshlab, O'zbekistonda barcha sohalarda, shuningdek ta'lim tizimida o'zgarishlar amalga oshira boshlandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida, ta'lim tizimi eski tizimdan jahon standartlari asosiga moslashtirish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratildi.

Madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta'lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi. O'zbekistonda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu dasturulamal hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy





tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida 10 mingdan ortiq xalq ta'limi xodimiga davlat uylari, 22 mingdan ortiq xodimga esa tashkilot va

muassasalar tasarrufidagi uylar bepul xususiyashtirilib berildi. 50 mingdan ortiq pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi. Qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to'lovlardan ozod etilgan bo'lsalar, shaharliklar uning 50 foizi miqdorida to'lab bordilar. Keyinchalik kommunal xizmat bo'yicha bu imtiyozlar oylik maoshlariga qo'shib beriladigan kompensatsiya bilan almashtirildi. 1992-yildagi qonun asosida umumiy ta'lim quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshirila boshlandi.

I bosqich – boshlang'ich ta'lim (1–4-sinf);

II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (4–9-sinf);

III bosqich – yuqori o'rta maktab (10–11-sinf);

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabrda qaratilgan qarori bilan 1-oktabr – “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligini, ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlangan. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida: «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplaridan biri ta'limning insonparvarlashuvidir. Ta'limning insonparvarlashuvi- inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan





bo'lgan turli-tuman ehtiyoj larining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarning uyg'unlashuvidir», - deb ta'kidlangan. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish tadbirlari - bu tizimni demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarida qayta qurish bilan ham bog'liq. Chunki insonparvarlik g'oyalari va tamoyillari milliy g'oya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning moddiy va ma'naviy farovonligini, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning o'zaro hamkorligi, do'stligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga g'amxo'rliги kabi eng yuksak, ilg'or insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etadi.

Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Kadrlartayyorlash Milliy dasturi. «Oliy ta'limda xalqaro hamkorlik. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim sohasida erishilgan ilg'or yutuqlarni, milliy an'analarni o'z ichiga olgan yangi modeli tashkil qilindi. Mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat

universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiallari ish boshladi. Shuningdek, Toshkentda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiallari ham o'zbek yoshlariga o'z ta'lim sirlarini o'rgatmoqdalar. (Sharq» nashriyoti, Toshkent, 1997,44-bet.)

Bu filiallar orqali O'zbekiston yoshlari xorijiy tajriba, ilg'or texnologiyalar va o'qitish uslublari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, bu





hamkorlik O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qildi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida 1993-yilda UNESCO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti) a'zoliciga qabul qilindi. Shu yildan boshlab UNESCO bilan ta'lim, fan, madaniyat yo'nalishlarida hamkorlik yo'lga qo'yildi.

2000 -2010 yillarda xalqaro grantlar orqali talabalar almashinuvi, professor-o'qituvchilar malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimiga o'tish, chet tillarini o'qitish sifatini oshirish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga muvofi q, 2017–2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. 2017–2018-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. Harakatlar Strategiyasida ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o'tishda oliy ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishdagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Ana shuni nazarda tutib, Prezident Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarni mustaqil fi krlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun





davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan edi. 2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar inobatga olinib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta’lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta’lim takomillashtirildi.

Bugungi kunda minglab o‘zbekistonlik yoshlar Turkiya, Rossiya, AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya, Malayziya, Xitoy kabi davlatlarda tahsil olmoqda. Ular turli xalqaro grantlar, stipendiyalar va davlat dasturlari asosida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Masalan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali har yili yuzlab yoshlar nufuzli xorijiy universitetlarda bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichlarida o‘qishga yuboriladi.

Mamlakat taraqqiyoti, rivojlanishi uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiya doirasida ta’lim tizimini isloh qilish, sifatli ta’lim-tarbiya berish va yetuk kadrlar yetishtirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim tizimida yangi yondashuvlar: Yangi O'zbekiston sharoitida ta’lim tizimida yangicha yondashuvlar joriy etilib, ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Bu jarayonda xotin-qizlar ta’limiga alohida e’tibor qaratilib, ularning ta’lim olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha rejalar: Prezident Shavkat Mirziyoyev maktab ta’limini rivojlantirish va sifatini oshirishga oid rejalar taqdimoti bilan tanishdi. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari eng birinchi vazifa etib belgilangan.





Shunga muvofiq, bu soha ham umumiy, ham ixtisoslashtirilgan tarzda rivojlantirilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimi sohasidagi islohotlar davom etib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Ushbu islohotlar mamlakatning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2025-yil 4-fevral kuni Kuala-Lumpurda bo'lib o'tgan "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta'lim sohasidagi imkoniyatlar va tashabbuslar" mavzusidagi birinchi O'zbekiston-Malayziya ta'lim forumi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi

O'zbekiston xalq ta'limi tizimidagi ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish va o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistondagi ta'lim tizimi sohasidagi xalqaro hamkorlik mamlakatning ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu hamkorliklar natijasida o'zbek talabalari va o'qituvchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda, ilmiy salohiyat oshirilmoqda va ta'lim tizimi global maydonda integratsiyalashmoqda.

Xulosa

Mustaqil O'zbekistonning ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik siyosati qisqa vaqt ichida jadal rivojlandi. Bugungi kunda mamlakat xalqaro ta'lim maydonida faol ishtirok etayotgan, o'zining mustaqil ta'lim modeli va xalqaro hamkorlik tajribasiga ega davlat sifatida tan olingan.





Ta'limdagi xalqaro hamkorlik O'zbekistonning global ilmiy makonga qo'shilishiga, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga va mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Shu bois, ushbu yo'nalish kelgusi yillarda ham davlat siyosatining eng ustuvor sohalaridan biri bo'lib qoladi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (1997, yangilangan tahrir — 2020). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 7-fevral.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
4. UNESCO. (2023). *Education Cooperation in Uzbekistan: Country Report*. <https://www.unesco.org>
5. UNICEF Uzbekistan. (2022). *Early Childhood Education Development Programs*. <https://www.unicef.org/uzbekistan>
6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Rasmiy ma'lumotlar*. <https://www.edu.uz>
7. Erasmus+ Uzbekistan. (2023). *Mobility and Cooperation Statistics*. <https://erasmus-plus.ec.europa.eu>
8. "El-yurt umidi" jamg'armasi. (2024). *Xorijda ta'lim oluvchi yoshlar dasturi*. <https://www.eyuf.uz>
9. Karimov, I. A. (1997). *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.